

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 526,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 %ga oshganini ko‘rish mumkin. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori miqdori Olmaliq shahrida – 7 026,4 ming so‘mni (155,2 %), Nurafshon shahrida – 5 674,1 ming so‘mni (125,4 %), Qibray tumanida – 5 546,4 ming so‘mni (122,5 %) Bekobod shahrida – 4 926,3 ming so‘mni (108,8 %), tashkil etdi.

Aksincha, Bo‘ka tumanida – 2 661,3 ming so‘mni (58,8 %), Bekobod tumanida – 2 687,6 ming so‘mni (59,4 %), Piskent tumanida – 2 856,8 ming so‘mni (63,1 %), Parkent tumanida – 2 904,7 ming so‘mni (64,2 %) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichni pasayganligini ko‘rish mumkin.

**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da**
(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**

Hudud nomi	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3951,2	4526,0	114,5
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	4689,4	5674,1	121,0
Olmaliq	6341,9	7026,4	110,8
Angren	3176,7	3822,0	120,3
Bekobod	4836,4	4926,3	101,9
Ohangaron	3856,7	4496,8	116,6
Chirchiq	3865,2	4560,8	118,0
Yangiyo'l	3608,3	3480,0	96,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2729,4	2961,2	108,5
Ohangaron	3847,4	4666,9	121,3
Bekobod	2253,3	2687,6	119,3
Bo'stonliq	3201,4	3840,1	120,0
Bo'ka	2464,3	2661,3	108,0
Quy Chirchiq	2684,0	2942,9	109,6
Zangiota	3243,5	3573,2	110,2
Yuqori Chirchiq	3402,4	3399,5	99,9
Qibray	4189,4	5546,4	132,4
Parkent	2489,9	2904,7	116,7
Piskent	2567,4	2856,8	111,3
O'rta Chirchiq	3249,3	3507,3	107,9
Chinoz	2525,4	2961,5	117,3
Yangiyo'l	3151,4	3880,5	123,1
Toshkent	2895,2	3505,3	121,1

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**


**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda**
(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, %da

(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Ish haqi. 2023- yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm*):



Ta'lim sohasida ishlovchilar soni 85 991 nafarni tashkil etdi.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 098,5 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ga o'sdi.



Sanoat sohasida ishlovchilar soni 112 752 nafarni tashkil etdi.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 648,0 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ga o'sdi.



Qurilish sohasida ishlovchilar soni 5 447 nafarni tashkil etdi.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 589,5 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga o'sdi.



Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilar soni 3 287 nafarni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 090,3 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga o'sdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 17- noyabrdagi PF-196-son Farmoniga binoan 2023- yil 1- dekabrda 1 050 000 so'mni tashkil etmoqda) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi